SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1420
Omonov Olim Murodullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	1424
Sharifi Abdul Fatah	
TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	1430
Sadikov Q.M.	
TIJORAT BANKLARIDA TO'LOV AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	1434
Kurbosheva Mohira Xafizovna	
MURAKKAB LOYIHALARDA RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	1439
Tursunmuratov Sherzod Turdimuratovich	
ЭФФЕКТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ДЕБИТОРСКОЙ И КРЕДИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТЬЮ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	1442
Камолова Феруза Кахрамоновна	
O'ZBEKISTON HUDUDIIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK YO'NALISHLARI.....	1448
Ma'murov Baxtiyor Xolmatjanovich	
O'ZBEKISTONDA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY VA INSTITUTIONAL ASOSLARI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	1456
Ismailova Gulruh Faxriddinovna	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К УПРАВЛЕНИЮ ПЕРСОНАЛОМ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ: ЦИФРОВИЗАЦИЯ, УПРАВЛЕНИЕ ТАЛАНТАМИ И МОТИВАЦИЯ.....	1462
Абилов Эльман Худаверди оглы	
O'ZBEKISTON BANKLARINING AML TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT: STRATEGIK ZARURAT VA JORIY ETISH YO'LLARI.....	1468
Rashidov Avazbek Raximovich	
GLOBALASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA TUG'ILISH KO'RSATKICHLARI STATISTIK TAHLILI.....	1475
Abduraxmanov Abduazim Djalaliddinovich	
BANK KREDITINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RESURLAR BILAN TA'MINLASHDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1483
Bo'tayev O'tkir Eshboevich	
TIJORAT BANKLARINI DAVLAT TASARRUFIDAN CHIQARISH VA XUSUSIYLASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNI CHUQURLASHTIRISH YO'LLARI.....	1489
Salamov Islom Tashkazakovich	
FRANCHAYZING ASOSIDA FAOLIYAT YURITUVCHI KORXONALAR MAHSULOTLARINI XALQARO BOZORDA ILGARI SURISHDA MERCHANDAYZING DIZAYNI VA VIZUAL MARKETING YONDASHUVLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	1495
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISHLAB CHIQRADIGAN SANOAT RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASH.....	1501
Mallaboyev Anvarjon Sotvoldiyevich	
QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLARNI BOSHQA YER TOIFALARIGA O'TKAZISHNING AXAMIYATI.....	1510
Safayev Sanjarbek Zafarbek o'g'li	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BAHOLASHNING KO'P OMILLI INDIKATORLARI TIZIMI.....	1516
Ibroximov Iloxjon Shavkatjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SAMARADORLIGI OMILLARI TAHLILI.....	1522
Maxmudova Maftunaxon Shavkatjon qizi	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORIJIY KREDIT LINIYALARINI JALB ETISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING AMALDAGI HOLATI.....	1529
Aytiboev Nodirbek Rashid o'g'li	



AUDITDA MUHIMLIK CHEGARASI KO'RSATKICHINI ANIQLASH MUAMMOLARI.....	1534
Pirnazarova Juldiz Djamiljan qizi	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СФЕРЫ УСЛУГ В ЭКОНОМИКЕ СТРАН МИРА И УЗБЕКИСТАНА.....	1538
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
MAHALLIY BUDJETLAR DAROMADLARINI MUSTAHKAMLASHDA MOLIYAVIY RESURLARNI BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	1544
Imanova Umida Baxtiyorovna	
A COMPARATIVE ANALYSIS OF VOCATIONAL EDUCATION SYSTEMS IN SAUDI ARABIA AND UZBEKISTAN	1549
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
YO'LOVCHI TASHISHDA KICHIK TADBIRKORLIK SHAKLLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MODELLARI	1555
Aytieva Sevara Allaberdievna	
XIZMATLAR SEKTORIGA INVESTITSIYA JALB QILISHDA STRATEGIK TAMOYILLAR VA ULARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY NATIJALARGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARI	1561
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li, Nabiyeu G'ulom Abdusalomovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA UNIVERSITETLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	1566
Boboxo'jayev Asliddin Muzaffarovich	
"YASHIL IQTISODIYOT" GA O'TISH JARAYONINI MOLIYALASHTIRISH	1571
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA XIZMATLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING ZARURLIGI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1575
Umirov Abdisalom To'rayevich	
ASOSIY VOSITALAR HISOBINING ICHKI AUDITI.....	1583
Zaripova Sayohat Zafarovna	
SOLIQ MA'MURIYATCHILIDA TO'LOVLAR TIZIMINING MOHIYATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHNING OBYEKTIV ZARURATI	1587
Tangirqulov G'ulom Baxtiyorovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNING UMUMIY HOLATI VA DINAMIKASI	1592
Asomidinova Mohigulbonu Oybek qizi	
XALQ BANKIDA KICHIK BIZNES LOYIHALARINI KREDITLASH AMALIYOTI TAHLILI	1598
Norqobilova Nargiza Abdiquodirovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA AYRIM MASALALAR.....	1603
Abidov Mansur Ilhomjonovich	
BANK 4.0 SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING BANK BOSHQARUVI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	1609
Boltayev Zokirjon Otanazarovich	
FMCG SEGMENTIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI VA UNING ASOSIY OMILLARI	1612
Anvar Deberdiyev	
XORAZM VILOYATIDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASHDA MARKETINGNING ROLI	1616
Otajanov Umid Abdullayevich, Isakova Naima Ikromjonovna	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	1625
Tilakov Navruz Maxmudovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QO'LLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI	1633
Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich	



UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING KO'RSATKICHLAR TIZIMI (KPI): SHAKLLANTIRILISHI VA MONITORING MEXANIZMI.....	1640
Qahharov Zuhridin Zafarbek o'g'li	
STRUCTURAL TRANSFORMATION AND PRUDENTIAL RESILIENCE OF THE BANKING SECTOR OF UZBEKISTAN	1646
Malikova Dilrabo Muminovna	
YOQILG'I-ENERGETIKA KORXONALARIDA ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA QARATILGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1653
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
BANKLARDA AKTIVLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY JIHATLARI	1661
Xojibekova Zilola Shavkat qizi	



BANKLARDA AKTIVLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY JIHATLARI



Xojibekova Zilola Shavkat qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
xojibekovazilola@gmail.com
ORCID:0009-0003-6833-3696

Annotatsiya. Ushbu maqolada banklarda aktivlar samaradorligini oshirishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari o'rganilgan. Tadqiqot doirasida portfel nazariyasi, risk va daromad o'rtasidagi muvozanat, kredit sikli nazariyasi hamda Basel III standartlari kabi ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, bank aktivlari samaradorligini oshirishda kredit risklarini boshqarish, stress-testlash, kredit ta'minotidan samarali foydalanish va investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish kabi amaliy mexanizmlarning roli yoritilgan.

Maqolada kredit portfeli o'sish sur'ati asosida ishlab chiqilgan stress-ssenariylar, muammoli kreditlar dinamikasi hamda investitsiya faoliyatidagi konsentratsiya risklari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari banklarda aktivlar samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: bank aktivlari, ROA, kredit riski, stress-test, NPL, kredit ta'minoti, investitsiya portfeli, risk-menejment

Abstract. This article examines the theoretical foundations and practical aspects of improving the efficiency of bank assets. Within the scope of the research, key academic approaches such as portfolio theory, the risk–return trade-off, the credit cycle theory, and Basel III standards are analyzed. In addition, the study highlights the role of practical mechanisms in enhancing bank asset performance, including credit risk management, stress testing, effective use of collateral, and diversification of the investment portfolio.

The article also analyzes stress scenarios developed based on credit portfolio growth rates, the dynamics of non-performing loans (NPLs), and concentration risks in investment activities. The research findings indicate that improving the efficiency of bank assets requires an integrated and comprehensive approach.

Keywords: bank assets, ROA, credit risk, stress testing, NPL, collateral, investment portfolio, risk management.

KIRISH

Bank tizimi iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy institutlardan biri hisoblanadi. Banklarning samarali faoliyati, avvalo, ularning aktivlarini to'g'ri boshqarish va ushbu aktivlardan olinadigan daromad darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, bank aktivlari samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy moliyaviy tizimda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bank aktivlari samaradorligi, asosan, rentabellik ko'rsatkichlari, xususan, aktivlar rentabelligi (ROA) orqali baholanadi. Ushbu ko'rsatkich bankning jami aktivlardan foydalanish darajasini ifodalaydi va uning moliyaviy natijalarini aks ettiradi. Shu bilan birga, bank aktivlari sifati kredit portfeli holati, muammoli kreditlar (NPL) ulushi, investitsiya portfeli tarkibi hamda risk-menejment tizimining samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Xalqaro bank amaliyotida bank aktivlari samaradorligini oshirishda portfel nazariyasi, risk va daromad o'rtasidagi muvozanat konsepsiyasi, kredit sikli nazariyasi hamda Basel III standartlari muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlar banklar faoliyatida risklarni boshqarish va kapital yetariligidini ta'minlash orqali moliyaviy barqarorlikka erishish imkonini beradi..



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida "Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish" vazifasi ko'zda tutilgan [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank aktivlari samaradorligi bo'yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Aksariyat olimlar mazkur tushunchani bankning mavjud resurslarini daromad keltiruvchi aktivlarga aylantirish hamda ushbu aktivlardan maksimal foyda olish qobiliyati sifatida talqin qiladilar.

Lawrence M. Seiford va Joe Zhu bank aktivlari samaradorligini tadqiq qilish jarayonida: "Bank aktivlari samaradorligi — bu resurslarni aktivlarga va aktivlarni daromadga aylantirish jarayonining umumiy samaradorligidir", degan xulosani shakllantirgan. Ularning fikricha, bank faoliyati samaradorligini baholashda aktivlarning daromad yaratish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. [2]

Allen N. Berger va David B. Humphreyning ta'kidlashicha, bank samaradorligi bankning xarajatlarini minimallashtirish va mavjud aktivlardan maksimal daromad olish qobiliyati bilan belgilanadi. Ular bank aktivlari samaradorligini texnik, taqsimot va foyda samaradorligi nuqtayi nazaridan baholashni taklif etadilar [3].

Allen N. Berger va Loretta J. Mesterning fikricha, banklar faoliyatida samarasizlik darajasi umumiy xarajatlarning 20 foizidan ortiq, potensial foydaning esa qariyb yarmiga teng bo'lishi mumkin. Shuning uchun aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish bank rentabelligini yuksaltirishning muhim omili hisoblanadi [4].

William C. Hunter, Allen N. Berger va Stephen G. Timme moliyaviy institutlar samaradorligini baholashda bank aktivlarining tarkibi, sifati va ularning daromad keltirish qobiliyatini asosiy mezonlar sifatida ko'rsatadilar. Ularning ta'kidlashicha, samarali aktivlar siyosati bankning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. [5].

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, bank aktivlari samaradorligi resurslar (depozitlar, kapital, mehnat resurslari)ni kreditlar va boshqa daromad keltiruvchi aktivlarga transformatsiya qilish jarayonining natijaviyligi bilan baholanadi. Bunda aktivlar rentabelligi (ROA), sof foiz marjasi (NIM), muammoli kreditlar ulushi (NPL) va aktivlar aylanuvchanligi kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi [6].

O. I. Lavrushinning ta'kidlashicha, bank faoliyati samaradorligi aktivlar hajmining o'sishi bilan emas, balki ularning sifatli tarkibi, daromadliligi va likvidliligi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash orqali baholanadi. Uning fikricha, bank aktivlarining samaradorligi bankning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. [7].

A. M. Tavasiyevning qayd etishicha, tijorat banki aktivlarini boshqarishning asosiy maqsadi daromadlilik, likvidlilik va risk darajasi o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlashdan iborat. Olimning fikricha, bank aktivlari samaradorligi ularni joylashtirish siyosati va risklarni boshqarish sifatiga bevosita bog'liq. [8].

G. N. Beloglazova va L. P. Krolyeskeyaning fikricha, bank aktivlarining samaradorligi aktiv operatsiyalarining daromadliligi, aktivlar diversifikatsiyasi va muammoli aktivlar ulushining minimal darajasi bilan belgilanadi. Ular aktivlar sifati ko'rsatkichlarini bank samaradorligini baholashning muhim mezonlari sifatida ko'rsatadilar. [9].

Mahalliy olimlardan professor F.Xolmamatovning fikriga ko'ra, tijorat banklarida kreditlardan ko'rilgan zararlarni qoplashga mo'ljallangan xazira ajratmalarining me'yoriy darajadan oshishiga yo'l qo'ymaslik va sof foizli marja ko'rsatkichining barqaror darajasini ta'minlash yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning tijorat banklarining yalpi daromadi hajmidagi salmog'ini oshirish lozim [10].

M.Taxirovning ilmiy ishlarida bank aktivlari sifatini oshirish maqsadida bank hisobvarag'ida muntazam pul oqimi mavjud bo'lgan, kreditga layoqatliligi bo'yicha skoring bali 85 ga teng va undan katta bo'lgan hamda muddati o'tgan qarzdorlikka yo'l qo'ymagan yuridik shaxslarga ta'minotsiz ajratiladigan qisqa muddatli kreditlarni ta'minlanmagan kreditlar toifasiga kiritish taklif etilgan [11].

Fikrimizcha, bank aktivlari samaradorligi — bu bank tomonidan jalb qilingan resurslarni yuqori daromadli va past riskli aktivlarga joylashtirish hamda ushbu aktivlar orqali barqaror daromad olish qobiliyatini ifodalovchi kompleks iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Ushbu samaradorlik darajasi aktivlar rentabelligi, sof foiz marjasi, aktivlar sifati va risklarni boshqarish ko'rsatkichlari orqali baholanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolda muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, tizimli tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Banklarda aktivlar samaradorligini ta'minlash – bu bank tomonidan jalb qilingan va joylashtirilgan resurslardan (aktivlardan) maksimal daromad olish hamda risklarni minimallashtirishni anglatadi. Bu bankning umumiy moliyaviy barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilaydi.

Banklarda stress-test o'tkazish moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va risklarni samarali boshqarishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Stress-testlar orqali bank faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan makroiqtisodiy va moliyaviy shoklar sharoitida uning kapital yetarliligi, likvidiligi, aktivlari sifati hamda to'lov qobiliyati baholanadi.

Xalqaro amaliyotda stress-testlar bank tizimining tashqi va ichki xavflarga chidamliligini aniqlash maqsadida keng qo'llaniladi. Jumladan, Bazel qo'mitasi tavsiyalariga muvofiq, stress-testlar bank risklarini baholash va kapitalni rejalashtirish tizimining ajralmas qismi hisoblanadi.

Stress-testlar, asosan, ssenariyli tahlil, sezgirlik tahlili va reversiv stress-test kabi usullar asosida amalga oshiriladi. Ssenariyli tahlilda bir vaqtning o'zida bir nechta risk omillarining o'zgarishi baholansa, sezgirlik tahlilida muayyan bir omilning bank moliyaviy ko'rsatkichlariga ta'siri o'rganiladi. Reversiv stress-test esa bank moliyaviy barqarorligining izdan chiqishiga olib keluvchi omillarni aniqlashga qaratilgan.

Banklarda stress-test o'tkazish jarayoni odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: stress-test maqsadini belgilash, asosiy risk omillarini aniqlash, ssenariylarni ishlab chiqish, ma'lumotlar bazasini shakllantirish, modellarni tuzish, natijalarni baholash hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.

Stress-test jarayonida kredit, likvidlilik, foiz stavkasi, valyuta, bozor va operatsion risklar baholanadi. Bunda kapital yetarliligi koeffitsiyenti, aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM), likvidlilik koeffitsiyentlari (LCR va NSFR), shuningdek, muammoli kreditlar ulushi (NPL) kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Stress-test jarayonida bir nechta ssenariylar tanlab olinadi va bankka mos kelganidan amaliyotda foydalaniladi. Ssenariy — bu kelajakdagi noaniq iqtisodiy muhitni turli ehtimoliy holatlarga ajratib, bank risklari va moliyaviy ko'rsatkichlarni baholashga xizmat qiluvchi analitik modeldir.

Kredit riskini stress-test qilish modeli stress yo'qotishlarni hisoblashga asoslangan bo'lib, uni baholash uchun bank quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanadi:

muammoli kreditlarning o'sishi;

kreditlarni sifat kategoriyalari bo'yicha qayta tasniflash natijasida yaratiladigan qo'shimcha zaxiralar miqdori;

kredit portfeli sifatining yomonlashuvi natijasida yo'qotiladigan daromad miqdori (1-jadval).

1-jadval.

Biznesni rivojlantirish bankida kredit riskini baholash bo'yicha stress-test natijalari, mlrd.so'm

Kredit portfel prognozi	Fakt NPL		Ssenariylar:		PROGNOZ Muammoli kreditlar summasi	Ssenariylar:	Muammoli kreditlar sog'lomla- shishi (kamayishi)	PROGNOZ (NPLs)	
	Summa	Ulushi	Standart va Substandart kreditlarning NPLga o'tishi_ %	SUMMA		Muammoli kreditlarni NPLdan chiqishi_ %		Summa	Ulushi
22 500,3	1 935,4	8,88%	1,96%	417,3	2 352,6	8,47%	578,3	2 191,6	9,74%
			3,58%	551,4	2 486,8	9,22%	815,9	2 222,3	9,88%
			2,10%	423,6	2 359,0	19,26%	764,4	2 018,2	8,97%
O'rtachasi			2,55%	464,1	2 399,5	12,32%	719,55	2 144,5	9,53%

* Kredit portfeli o'tgan chorak yakuni, biznes-reja va kredit qaytish grafigidan kelib chiqib joriy 2024-yil 1-chorakda o'rtacha 700 mlrd.so'mga oshadi deb baholangan.

Tahlil natijalariga ko'ra, kredit portfeli o'sishi va kreditlar sifatining yomonlashishi sharoitida NPL hajmi turlicha dinamika ko'rsatadi. Jumladan, standart va substandart kreditlarning NPLga o'tish ehtimoli oshgan ssenariylarda muammoli kreditlar summasi ortadi va portfelning umumiy sifati pasayadi.

O'rtacha hisob-kitoblarga ko'ra, ssenariylar bo'yicha standart va substandart kreditlarning NPLga o'tishi 2,55% ni tashkil etgan bo'lib, bu holatda muammoli kreditlar hajmi ortadi va kredit portfelining umumiy risk darajasi kuchayadi. Shu bilan birga, muammoli kreditlarning sog'lomlashishi (NPLdan chiqishi) 9,53% atrofida bo'lib, bu bank tomonidan amalga oshirilayotgan tiklanish choralari ma'lum darajada samara berayotganini ko'rsatadi.



Fikrimizcha, bank aktivlari samaradorligini oshirishda kredit riskini boshqarish bo'yicha stress-senariyning omili sifatida kredit portfelining o'sishi 2 foiz bo'lganda "barqaror ssenariy", 3 foiz bo'lganda "stressli ssenariy" va 4 foiz bo'lganda "inqirozli ssenariy" deb tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Buni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

1. Xalqaro stress-testlash amaliyotiga muvofiqlik

Bank risk-menejmentida stress-testlar xalqaro amaliyotda (jumladan Basel III standartlarida) "baseline", "adverse" va "severely adverse" ssenariylar asosida amalga oshiriladi. Kredit portfeli o'sish sur'atini 2%, 3% va 4% darajalarda tasniflash mazkur uch bosqichli ssenariy modelining soddalashtirilgan va amaliy ko'rinishi hisoblanadi.

2. Kredit risk va portfel o'sishi o'rtasidagi empirik bog'liqlik

Xalqaro tadqiqotlar (IMF, World Bank) kredit portfeli tez o'sgan davrlardan keyin ma'lum vaqt oralig'ida ishlaymaydigan kreditlar (NPL) ulushi ortishini ko'rsatadi. Bu esa kredit o'sish sur'ati ortishi bilan risk darajasi ham ortib borishini tasdiqlaydi.

3. Chiziqsiz risk dinamikasi

Bank risklari kredit portfeli o'sishiga nisbatan chiziqli emas, balki eksponensial xarakterga ega. Ya'ni o'sish sur'ati oshgan sari risk darajasi tezlashib ortadi. Shu sababli 4% va undan yuqori o'sish inqirozli ssenariy sifatida baholanadi.

Bank aktivlari samaradorligini ta'minlashda keyingi eng asosiy talablardan biri bu kredit ta'minoti hisoblanadi va u riskni kamaytiruvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Kredit ta'minoti kredit qaytmaslik xavfini pasaytirish orqali bankning kredit portfeli sifatini yaxshilaydi hamda aktivlardan olinadigan daromad barqarorligini oshiradi.

Kredit ta'minoti bank aktivlari samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib, u kredit risklarini pasaytiradi, muammoli kreditlar hajmini kamaytiradi hamda bankning daromadlilikini barqarorlashtiradi. Shu bilan birga, kredit ta'minoti samaradorligi uning likvidligi va baholash sifatiga bog'liq bo'lib, u kompleks risk-menejment tizimi bilan uyg'un holda qo'llanilishi lozim (2-jadval).

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimi kreditlar va muammoli kreditlarning dinamikasi, mlrd so'm [12]

Sana	Kreditlar			Muammoli kreditlar (NPL)		
	Jami	shundan:		Jami	shundan:	
		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar		davlat ulushi mavjud banklar	boshqa banklar
1	2	3	4	5	6	7
01.01.2024 y.	471 405,5	333 298,1	138 107,4	16 621,4	13 267,2	3 354,2
01.02.2024 y.	469 600,4	329 591,1	140 009,4	20 013,9	15 418,2	4 595,7
01.03.2024 y.	472 406,9	331 151,0	141 255,9	20 850,3	16 141,8	4 708,5
01.04.2024 y.	478 200,6	335 366,4	142 834,2	21 600,8	16 944,5	4 656,2
01.05.2024 y.	483 605,3	339 210,0	144 395,3	23 311,9	17 830,7	5 481,2
01.06.2024 y.	490 259,5	343 469,4	146 790,1	20 935,9	16 428,3	4 507,7
01.07.2024 y.	493 952,1	345 500,8	148 451,3	20 000,3	15 102,3	4 898,0
01.08.2024 y.	500 643,9	348 292,7	152 351,2	20 820,5	15 249,7	5 570,7
01.09.2024 y.	509 675,8	354 815,5	154 860,4	21 530,1	15 063,0	6 467,2
01.10.2024 y.	515 640,8	358 577,6	157 063,1	21 539,4	14 604,9	6 934,4
01.11.2024 y.	521 025,0	362 004,6	159 020,4	22 013,7	14 961,0	7 052,7
01.12.2024 y.	525 886,5	363 938,6	161 947,9	22 446,6	14 981,9	7 464,7
01.01.2025 y.	533 121,2	366 730,5	166 390,7	21 185,1	14 343,8	6 841,3
01.02.2025 y.	533 989,0	366 859,9	167 129,2	23 768,3	16 819,8	6 948,5
01.03.2025 y.	540 022,1	370 634,4	169 387,7	24 348,3	17 017,6	7 330,7
01.04.2025 y.	551 808,8	379 590,9	172 217,9	23 488,6	16 125,5	7 363,0
01.05.2025 y.	565 567,9	389 074,9	176 493,0	23 649,8	15 991,9	7 657,9
01.06.2025 y.	567 685,2	389 198,2	178 487,0	23 519,5	15 765,6	7 754,0
01.07.2025 y.	575 244,6	394 218,1	181 026,5	21 869,8	14 888,5	6 981,3
01.08.2025 y.	576 247,4	392 493,5	183 753,9	22 553,8	15 556,0	6 997,8
01.09.2025 y.	581 057,1	394 951,7	186 105,4	21 802,3	14 887,9	6 914,4
01.10.2025 y.	582 210,7	394 906,3	187 304,4	21 261,4	14 591,6	6 669,8
01.11.2025 y.	592 853,7	401 846,1	191 007,6	22 373,5	15 841,5	6 532,0
01.12.2025 y.	595 309,4	401 863,5	193 446,0	20 545,4	14 581,6	5 963,9
01.01.2026 y.	604 002,2	404 468,8	199 533,4	18 055,3	12 834,5	5 220,9



Tahlil qilinayotgan davr mobaynida mamlakat bank tizimining kredit portfeli barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2024-yil 1-yanvarda jami kreditlar hajmi 471,4 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvar holatiga kelib bu ko'rsatkich 604,0 trln so'mga yetgan. Bu esa kreditlash hajmining izchil kengayib borayotganini anglatadi.

Shu bilan birga, muammoli kreditlar (NPL) hajmida ham ma'lum tebranishlar kuzatilgan. 2024-yil boshida NPL hajmi 16,6 trln so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yil davomida u 21–23 trln so'm oralig'ida o'zgarib turgan. 2025-yil davomida NPL nisbatan barqarorlashib, ayrim oylarda pasayish tendensiyasi kuzatilgan. 2026-yil boshiga kelib esa muammoli kreditlar 18,1 trln so'mni tashkil etgan.

Umuman olganda, tahlil qilinayotgan davrda bank tizimi kredit portfeli sezilarli darajada kengaygan bo'lsa-da, muammoli kreditlar ulushi keskin oshmagan va 3–4% oralig'ida barqaror saqlanib qolgan. Bu esa bank tizimida kredit risklarini boshqarish mexanizmlari ma'lum darajada samarali ishlayotganini ko'rsatadi.

Kredit ta'minoti bank kredit risklarini kamaytirish orqali aktivlar sifatini yaxshilaydi. Ta'minotning asosiy vazifasi — defolt holatida bank zararini qisman yoki to'liq qoplash.

Bank aktivlari sifatini oshirishda kredit ta'minoti sifatida kotirovka qilinadigan aksiyalarni qabul qilishda ularning garov qiymatini kredit muddatiga bog'liq ravishda differensial yondashuv asosida belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv moliyaviy risklarni kamaytirish, garov qiymatining bozor tebranishlariga nisbatan barqarorligini ta'minlash hamda kredit portfelining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.


Xususan, kredit muddati qisqa bo'lgan (18 oygacha) kreditlar bo'yicha aksiyaning birja bozoridagi narxining 80 foizigacha garov qiymatini belgilash nisbatan maqbul hisoblanadi. Chunki qisqa muddat ichida aksiyalar narxining keskin o'zgarish ehtimoli pastroq bo'lib, bank uchun likvidlik riski nisbatan cheklangan bo'ladi. Shu sababli yuqoriroq garov qiymatini qo'llash kreditlash jarayonining samaradorligini oshiradi.

18 oydan 60 oygacha bo'lgan o'rta muddatli kreditlarda esa aksiyalar narxining 70 foizigacha bo'lgan baholash koeffitsienti qo'llanilishi tavsiya etiladi. Bu muddat oralig'ida bozor kon'yunkturasi o'zgaruvchanligi ortadi va aksiyalar qiymatining tebranish xavfi kuchayadi. Shuning uchun garov qiymatini biroz pasaytirish bankni potensial yo'qotishlardan himoya qiladi hamda kredit xavfini muvozanatlashtiradi.

60 oydan ortiq uzoq muddatli kreditlarda esa aksiyalar qiymatini 60 foiz darajasida baholash maqsadga muvofiqdir. Uzoq muddat davomida bozor risklari, makroiqtisodiy o'zgarishlar va kompaniya faoliyatidagi noaniqliklar kuchayishi mumkinligi sababli garovning konservativ baholanishi bank aktivlari sifatini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan asoslarga tayanib, bank aktivlari sifatini oshirishda kredit ta'minoti sifatida kotirovka qilinadigan aksiyalar taqdim etilganda kredit muddati 18 oygacha bo'lganda aksiyaning birja bozoridagi narxining 80 foizigacha, 18 oydan 60 oygacha bo'lganda 70 foiz va 60 oydan oshganda 60 foiz etib belgilash taklifini keltirish mumkin.

Mazkur differensial yondashuv bankning garov portfeli barqarorligini oshiradi, kredit yo'qotishlarini kamaytiradi hamda aktivlar sifati ko'rsatkichlarini (xususan, NPL darajasini) yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kreditlash jarayonida risk va daromadlilik o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Bank tizimi aktivlar rentabelligi ko'rsatkichlari, foizda [12]



Berilgan ma'lumotlarga ko'ra, soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA) 2025-yil va 2026-yil boshida 1,4 foizdan 2,2 foizgacha tebranishda bo'lgan. Umuman olganda, ko'rsatkich dinamikasi bank aktivlari samaradorligining nisbatan barqaror, lekin o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi.

2025-yil boshida ROA 1,4 foizni tashkil etgan bo'lib, keyingi oylarda keskin o'sib 2,2 foizga yetgan. Bu holat bank faoliyatida dastlabki ijobiy samaradorlik oshishini anglatadi. Biroq mart–iyun oylarida ko'rsatkich 2,1 foizdan 1,9 foizgacha pasaygan bo'lib, bu davrda aktivlardan olinayotgan daromadning qisman kamayganini ko'rsatadi.

Shuningdek, ROA dinamikasidagi tebranishlar kredit portfeli sifati, foiz daromadlari o'zgarishi, operatsion xarajatlar va risk-menejment siyosati bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayniqsa, kredit risklarining o'zgarishi va muammoli kreditlar dinamikasi bankning umumiy daromaddorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilinayotgan davrda bankning aktivlar rentabelligi nisbatan barqaror bo'lib, o'rtacha 2 foiz atrofida saqlangan. Bu esa bank aktivlari samaradorligi qoniqarli darajada ekanligini, biroq uni yanada oshirish uchun kredit portfelini optimallashtirish va risklarni boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Bank muammoli aktivlardan qochishi uchun avvalombor, banklar boshidanoq o'ta riskli aktiv operatsiyalardan saqlanishi kerak. Ular kreditlashning to'g'ri mezonlariga rioya qilishlari va qarz oluvchilarning kreditga layoqatlilikini to'g'ri baholashlari kerak, chunki kreditlar faqat ularni to'lashi mumkin bo'lgan mijozlargagina beriladi.

Shuningdek, bank qarz oluvchi moliyaviy qiyinchiliklarga duch kela boshlaganda uni ertaroq aniqlay olishi uchun tegishli monitoring tizimiga ega bo'lish muhimdir. Keyin bankda bu vaziyatni to'g'irlash uchun vositalari mavjud bo'ladi. Ba'zi hollarda, mijozga uning moliyaviy ahvoli to'g'risida shunchaki maslahat berishning o'zi kreditning muddati o'tishini oldini olish uchun yetarli bo'lishi mumkin.

Bank berilgan kreditlarni doimiy asosda monitoring qilib borish tizimini joriy qilishi shart. Kredit monitoringidan ko'zlangan bosh maqsad - qarz oluvchining to'lovga layoqatlilikini (kredit bo'yicha qarz majburiyatlarini belgilangan muddatda bajara olishini) ilk bosqichdayoq aniqlash hamda kreditlar qaytarilishi va foizlarning o'z muddatida to'lanishini ta'minlashdan iborat. Ajratilgan kredit bo'yicha kredit prinsiplaridan kelib chiqqan holda, tavakkalchilikni baholash, bank aktivlari tarkibini yaxshilash va xarakatsiz kreditlar ulushini minimallashtirish asosida tizimli monitoring olib boriladi.

Kredit portfelini monitoring qilishdan maqsad, kredit xatarlari darajasini baholash hamda kredit portfeli sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir. Kredit portfeli bo'yicha shakllantirilgan zaxiralar monitoringi tegishli tarkibiy tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladi. O'z navbatida, tegishli tarkibiy tuzilmalar tomonidan kredit portfeli holati yuzasidan tavakkalchiliklarni oldini olish maqsadida stress-testlar o'tkazib boriladi.

Kredit portfeli tarkibi tahlili quyidagilar bo'yicha amalga oshiriladi:

kredit portfelini tarmoqlarga bo'linishi bo'yicha;

kredit portfelini avvalgi hisobot davrlariga nisbatan o'zgarishi bo'yicha;

ta'minot turlari bo'yicha.

Bank tomonidan har bir ajratilgan kredit bo'yicha to'lovlilik, muddatlilik va qaytarishlilik prinsiplaridan kelib chiqqan holda, tavakkalchilikni baholash, Bank aktivlari tarkibini yaxshilashni kompleks kengaytirish va ishlaymaydigan kreditlar ulushini pasaytirish (ayniqsa xorijiy valyutada berilgan kreditlar bo'yicha) asosida tizimli monitoring olib boriladi. Kredit monitoringi, Bankning ichki me'yoriy hujjatlarida o'zga tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, qarz oluvchining kredit hisobvarag'iga xizmat ko'rsatadigan filialning yoki Bosh ofisning tegishli tarkibiy tuzilmasi tomonidan amalga oshiriladi. Zarur holatlarda bir martalik vakolat bilan ajratilgan kreditlar monitoringi Bosh ofisning tegishli tarkibiy tuzilmasi xodimlarini jalb qilgan holda amalga oshiriladi.

Banklarda kredit va unga hisoblangan foizlar to'lovini surunkali ravishda kechiktirayotgan, biznes-reja ko'rsatkichlarini 60 foizdan kam bajarayotgan hamda kredit shartlarini buzgan yuridik shaxslar bo'yicha har chorakda joyiga chiqqan holda monitoring o'tkazish taklifi bir qator nazariy va amaliy asoslarga ega.

Kredit risklarini boshqarishning preventiv yondashuvi;

Erta ogohlantirish tizimi bilan muvofiqlik;


NPL (muammoli kreditlar) o'sishini oldini olish;

Kredit shartlariga rioya etilishini ta'minlash.

Bank aktivlari tarkibidagi ikkinchi asosiy aktivlar bu investitsiyalar hisoblanadi va banklarga daromadlarning katta qismini ta'minlab beradi. Tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyat olib borishdan asosiy maqsad ularning daromadlilikini va likvidlilikini (bankning faoliyati bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilish qobiliyati) ta'minlashdan iboratdir. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida tijorat banklarini investitsiya siyosati bank faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi va banklarning likvidlilikini ta'minlaydi. Banklar investitsion faoliyatni turli xil qimmatli qog'ozlar: oddiy va imtiyozli aksiyalar, obligatsiyalar, xazina majburiyatlari, depozit sertifikatlar, veksel va boshqalarga mablag'larni qo'yish, uzoq muddatli kreditlar ajratish, hamda yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirish orqali amalga oshiradilar.



Investitsiya siyosatining maqsadi qimmatli qog'ozlarga pul mablag'larini yo'naltirish, shuningdek, bank potensialini O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga ishlatish yo'li bilan Bankda barqaror daromadlilikni, likvidlikni va me'yordagi xatar darajasini ushlab turish hisoblanadi (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston banklarida investitsiyalarning o'zgarishi, mlrd so'm [12]

Tahlil davrida O'zbekiston banklarining investitsiya portfelini barqaror va jadal o'sish tendensiyasini namoyon etgan. 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra investitsiyalar hajmi 19 634 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yil 1-yanvarga kelib ushbu ko'rsatkich 102 978,8 mlrd so'mga yetgan.

Bu holat bank tizimida investitsion faollikning sezilarli darajada kuchayganini va banklarning iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi roli ortganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, 2022–2026-yillar davomida O'zbekiston banklarida investitsiyalar hajmi qariyb 5,2 barobarga oshgan bo'lib, bu bank tizimining iqtisodiyotni moliyalashtirishdagi roli sezilarli darajada kuchayganini ko'rsatadi. Investitsion portfelning bunday tez o'sishi banklarning aktiv operatsiyalarini diversifikatsiya qilish, daromadlilikni oshirish va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, investitsiyalar dinamikasidagi keskin o'sish bank tizimida risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ham ko'rsatadi. Ushbu investitsiya bilan bog'liq risklarni takomillashtirish maqsadida quyidagi taklifni keltirish mumkin:

bank investitsiyalari samaradorligini ta'minlashda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning maksimal darajasi 45 foizdan yuqori bo'lganda "yuqori risk", 45-40,5 foiz bo'lganda "o'rtacha risk", 40,5 foizdan kam bo'lganda "past risk" etib belgilash va chegara qiymatini minimal 45 foiz bo'lishini ta'minlash maqsadga muvofiq. Ushbu taklifni quyidagilar bilan asoslash mumkin:

1. Portfel diversifikatsiyasi va konsentratsiya riski nazariyasi.

Moliyaviy nazariyaga ko'ra, investitsiya portfelida ma'lum bir aktiv sinfi ulushining ortishi konsentratsiya riskini kuchaytiradi. Shu sababli 45% chegarasi risk konsentratsiyasining kritik nuqtasi sifatida qabul qilinadi.

2. Bozor riski va volatillik ta'siri.

Qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar) bozor narxlarining o'zgaruvchanligi yuqori bo'lgan aktivlar hisoblanadi.

3. Chegaraviy yondashuvning ilmiy asosi.

Risklarni baholashda threshold-based classification usuli qo'llaniladi, ya'ni ko'rsatkichlar aniq chegaralar orqali baholanadi.

Bank investitsiya portfelini boshqa korxonalar qimmatli qog'ozlarini sotib olish va ustav kapitaliga ulush kiritish yo'li bilan shakllantiriladi. Mamlakatimizdagi qonunchilikka asosan bank o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan quyidagi qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshiradi:

- aksiyalar;
- obligatsiyalar;
- g'azna majburiyatlari;



depozit sertifikatlar;
qimmatli qog'ozlarning hosilalari;
veksellar.

Banklarning investitsiya portfeli qo'yilmalarining asosan 2 xil ko'rinishi mavjud:
davlat qimmatli qog'ozlari (ishonchli va likvidli qog'ozlar);
korporativ qimmatli qog'ozlar (turli xo'jalik subyektlarining qimmatli qog'ozlari).

Bank tomonidan ulushli va qarz munosabatlarini ifodalovchi korporativ qimmatli qog'ozlar olinishi mumkin.
Qimmatli qog'ozlar portfeli parametrlari Bankning har yili tasdiqlanadigan Biznes-rejasida belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada olib borilgan ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Banklarda aktivlar samaradorligini oshirish masalasi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, daromadlilikni oshirish hamda bank tizimining raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy jihatdan aktivlar samaradorligi bank tomonidan jalb qilingan resurslarni yuqori daromad keltiruvchi aktivlarga transformatsiya qilish jarayonining natijadorligi sifatida talqin qilinadi. Bu jarayonda aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz marjasi (NIM) hamda risklarni boshqarish ko'rsatkichlari asosiy mezonlar sifatida xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan banklarda aktivlar samaradorligi kredit portfeli sifatini oshirish, muammoli kreditlar (NPL) ulushini kamaytirish, aktivlarni diversifikatsiya qilish hamda risklarni samarali boshqarish orqali ta'minlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy bank amaliyotida raqamli texnologiyalarni joriy etish, kredit skoring tizimlarini takomillashtirish va stress-test mexanizmlaridan foydalanish aktivlar sifatini yaxshilashda muhim o'rin tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aktivlar samaradorligi faqat daromadlilikni oshirish bilan emas, balki risk va likvidlilik o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash orqali ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, banklar uchun strategik vazifa — aktivlar portfelini samarali boshqarish, yuqori sifatli kreditlash siyosatini amalga oshirish va investitsiya yo'nalishlarini diversifikatsiya qilishdan iborat.

Umuman olganda, banklarda aktivlar samaradorligini oshirish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyotni kreditlash hajmini kengaytirish hamda bank tizimining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислохотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони, 2026 йил 16 феврал, ПФ–21-сон
2. Seiford L. M., Zhu J. Profitability and Marketability of the Top 55 U.S. Commercial Banks // Management Science. – 1999. – Vol. 45, No. 9. – P. 1270–1288.
3. Berger A. N., Humphrey D. B. Efficiency of Financial Institutions: International Survey and Directions for Future Research // European Journal of Operational Research. – 1997. – Vol. 98, No. 2. – P. 175–212.
4. Berger A. N., Mester L. J. Inside the Black Box: What Explains Differences in the Efficiencies of Financial Institutions? // Journal of Banking & Finance. – 1997. – Vol. 21, No. 7. – P. 895–947.
5. Berger A. N., Hunter W. C., Timme S. G. The Efficiency of Financial Institutions: A Review and Preview of Research Past, Present and Future // Journal of Banking & Finance. – 1993. – Vol. 17, No. 2–3. – P. 221–249.
6. Rose P. S., Hudgins S. C. Bank Management and Financial Services. – 10th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 768 p.
7. Лаврушин О. И., Ветрова Т. Н. Эффективность банковской деятельности: методология, критерии, показатели, процедуры // Банковское дело. – 2015. – № 5. – С. 38–42.
8. Тавасиев А. М. Банковское дело: учебник для бакалавров. – Москва: Юрайт, 2013. – 647 с.
9. Белоглазова Г. Н., Кроливецкая Л. П. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка : учебник. – Москва : Юрайт, 2018. – 652 с.
10. Холмаматов Ф. К. Тижорат банкларининг кредитлаш амалиётини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 28 б.
11. Тахиров М. Х. Тижорат банкларида активлар сифатини ошириш йўллари : иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Тошкент, 2023. – 28 б.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>